

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025 yil yanvar-aprel oylari uchun

- I.** Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II.** Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III.** Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV.** Kichik biznes tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V.** Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025 yilning 1 may holatiga ko'ra Viloyatda 3005 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 785 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 26,1 % i) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 692 tasi (23,0 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 280 tasi (9,3 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 216 tasi (7,2 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 may holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4578,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	4 578,8	106,8
Termiz shahri	437,3	108,6
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	188,0	134,4
Bandixon tumani	80,3	116,1
Boysun tumani	74,7	107,7
Denov tumani	470,9	112,4
Jarqo'rg'on tumani	397,0	101,5
Qumqo'rg'on tumani	335,3	119,5
Qiziriq tumani	47,6	54,2
Muzrabot tumani	199,4	107,1
Oltinsoy tumani	136,9	116,5
Sariosiyo tumani	200,3	108,4
Termiz tumani	199,3	112,2
Uzun tumani	169,1	107,6
Sherobod tumani	424,7	107,3
Sho'rchi tumani	300,1	104,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahrida (2102,5 ming so'm), Sherobod (1972,1 ming so'm), Jarqo'rg'on (1623,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1550,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Angor tumanida (131,5 %), Qumqo'rg'on tumanida (116,7 %), Oltinsoy tumanida (113,7 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-aprel oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025 yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4238,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (92,5 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 103,8 mlrd so'm (2,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 141,3 mlrd so'm (3,1 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 95,0 mlrd so'm (2,1 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025 yilning yanvar-aprel oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 13,9 ming tonna boshqa paxta chigit (2024 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 2,4 m % ga ko'paygan), 20,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (166,2 % ga ko'paygan), 1,5 mln litr aroq mahsulotlari (38,1 m. ga ko'paygan) hamda 18,7 ming tonna paxta tołasi (3,2 m % ga ko'paygan)

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-aprel*	2024 yil yanvar-aprel*	2025 yil yanvar-aprel
Aroq, ming litr	86,1	39,9	1518
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	7578	4559,0	9 318
Paxta tolasidan yigirligan ip, tonna	14604,9	14331,3	13 052
Neft bitumi, ming t	16,3	14,3	13,7
Tabiiy qumlar, ming t	-	18,6	8,4
Toshko'mir, ming t	87,1	144,9	142,7
Xom neft, ming t	25,2	24,3	21,5
Boshqa paxta chigit, ming t	0,1	5,8	13,9
Kepak, ming t	4,8	3,1	6,4
Portlandsement, ming t	194,9	265,7	88,6

*2023-2024 yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2024 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 42,2 % (2024 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024 yilning yanvar-aprel oylarida 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (2,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,8 % (26,1 %), quyi texnologiyali 73,2 % (71,6 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 164,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 88,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-aprel*	2024 yil yanvar-aprel*	2025 yil yanvar-aprel
Elektrenergiya, mln.kvt.s	32,8	70,0	115,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	12,3	8,4	7,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 2,1 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 1,7 m. ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-aprel*	2024 yil yanvar-aprel*	2025 yil yanvar-aprel
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	3,0	3,0	6,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	24,9	25,0	43,3
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	3,9	5,3	10,7

*2023-2024 yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3120,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 68,1 % ni tashkil etdi. 2024 yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 48,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyatiqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdag'i tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyl-hajmi-qiyimatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

